

QUDRATOV A.N.

# TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI



---

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**QUDRATOV A.N.**

**TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**

fanidan o'quv qo'llanma

**Toshkent**  
**"NIF MSH"**  
**2024**

UDK:004  
KBK:32  
Q72

**Qudratov A.N.**  
**Ta'limda axborot texnologiyalari fanidan o'quv qo'llanma.**  
**- Toshkent: "NIF MSH", 2024. - 180 b.**

Mazkur o'quv qo'llanma amaldagi amaldagi fan dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, 60230100-Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) sohasidagi barcha bakalavriyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Unda fan bo'yicha nazariy materiallar, amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari, topshiriqlar, bilimlarni nazorat qilish uchun savollar majmuasi kabilar keltirilgan.

Настоящее учебное пособие подготовлено на основе действующей научной программы и предназначено для всех студентов бакалавриата по направлению 600230100-Филология и преподавание языков (узбекский язык). Содержит теоретические материалы по науке, разработку практических упражнений, заданий, комплекс вопросов для контроля знаний.

This study guide is prepared on the basis of the current science program and is intended for all undergraduate students in the field of 600230100-Philology and language teaching (uzbek language). It contains theoretical materials on science, development of practical exercises, assignments, a set of questions for knowledge control.

**Taqrizchilar:**

**U.Y.Yuldashev** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Informatika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida professori t.f.d.,

**D.E. Toshtemirov** - Guliston davlat universiteti, "Pedagogika" kafedrasida dotsenti.

Guliston Davlat universiteti o'quv-uslubiy kehgashining 2023-yil 29-martdagi 8-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2023-yil 30-martdagi 39-sonli buyrig'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-785-57-3

© Qudratov A.N., 2024.  
© "NIF MSH", 2024.

## **So'z boshi.**

Hozirgi vaqtda O'zbekistonning barcha ta'lim muassalarida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishda axborot texnologiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari uzasidan bir qancha ijobiy ishlar olib kelinmoqda. Jumladan, Oliy ta'lim muassalarida talabalarga fanlardan zamonaviy talablar asosida har xil darsliklar, o'quv qo'llanmalar va o'quv-uslubiy majmualar yaratib kelinmoqda. Ushbu taqdim etilayotgan o'quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarining barcha bakavlariyat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, u "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'rganishga qaratilgan.

O'quv qo'llanmada "Talimda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha nazariy materiallar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmalari, topshiriqlar, bilimlarni nazorat qilish uchun savolar majmuyasi keltirilgan.

O'quv qo'llanmada "Talimda axborot texnologiyalari" ning maqsadi, mazmuni va vazifalari, komputer qurilmalarning tashkil etuvchilari, sistemali va amaliy dasturlar ta'minoti, amaliy dasturlardan foydalanish, Internet texnologiyalari, modellashtirish, algoritmlash va dasturlash kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada ham kamchiliklardan holi emas. O'quv qo'llanma haqidagi fikr va muloxazalarni bildirilgan hamkasblar va aziz o'quvchilarda mualliflar oldindan o'z minnatdorchiligini bildiradi.

**Manzilimiz:** Guliston shahar, Guliston  
davlat universiteti, Axborot  
texnologiyalri fakulteti, Amaliy  
matematika va axborot  
texnologiyalari kafedراسi.

# **I BOB. ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING QO'LLANILISHI.**

## **1.1. Ta'limda axborot texnologiyalari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.**

**Tayanch tushuncha va iboralar:** komputer, axborot, informatika, texnologiya, axborot texnologiyalari, algoritm, dastur, axborotning sifatlari, axborotning o'lchov birliklari, axborotni xossalari, axborotni saqlash, tartiblash, izlash, ikkilik raqami, Bit, Bayt, Kilobayt, Gigabayt, Terabayt, Petabayt,

### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. Ta'limda axborot texnologiyalari fani, axborotlarni saqlash, to'plash, uzatish, qayta ishlash, qayta nomlash, va ulardan foydalanish haqidagi fan deb qaraladi. Siz ushbu ta'riflashda qo'shilasizmi yoki qo'shilmaysizmi?

2. Informatika fanida axborot va ma'lumot deb nomlangan tushunchalar qaraladi. Bu tushunchalarning bir-biridan farqi bormi? Agar mavjud bo'lsa, javobinizni izohlang.

**Darsning maqsadi:** Ta'limda axborot texnologiyalari fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari to'g'risida ma'lumot berish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Ta'limda axborot texnologiyalari fanining maqsadi va vazifalarini izohlay oladi.

2. Ta'limda axborot texnologiyalari fanining mazmuni mazmunini ochib bera oladi.

Ta'limda axborot texnologiyalari-hisoblash texnikasi vositalari bilan axborotlarni saqlash, yaratish, qayta tiklash, qayta ishlash va uzatish usullari, hamda ushbu vositalarni faol yuritish jarayonining tamoyillari va ularni boshqarish usularini sistemalashtiruvchi texnik fandır.

Ta'limda axborot texnologiyalarning predmeti - bu axborot va bilimlarni o'zida birlashtiruvchi axborot resursidir.

Ta'limda axborot texnologiyalari fanining vazifalari

- ✓ Hisoblash texnika vositalarini faol yuritishni tashkil qilish va ishlab chiqish.
- ✓ Samarali interfeysni tashkil qilish va ishlab chiqish.
- ✓ Ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash, saqlash va chiqarish.
- ✓ Tarmoqlarni faol yuritishni tashkil qilish va ishlab chiqish.
- ✓ Axborot tizimlarni ishlab chiqish va faol yuritishni tashkil qilish.
- ✓ Dasturlash.
- ✓ Axborotlar xavfsizligini himoyalash.

Axborot texnologiyasi-axborotni saqlash, izlash, to'plash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar majmui.

Axborot tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda 439-II son "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga binoan, axborot-manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Axborot keng qamrovli tushunchaga ega bo'lib, unga turlicha ta'riflar ham berish mumkin:

1. Hodisa, predmet, dalil, voqea, jarayon kabi ob'ektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar yoki buyruqlardir;
2. Ma'lum xos matnda aniq ma'noga ega voqea, xodisa, predmet, tushunchalarni o'z ichiga olgan dalil, taqdimot, jarayon kabi ob'ektlar haqidagi bilimlar majmuidir;
3. Qiziqishni uyg'otish mumkin bo'lgan, qayta ishlanishi va saqlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar. Ilmiy formulalar, kitob matni, dars jadvali, bank hisob raqamidan foydalanish va to'lovlar, o'lchash majmualarining yer va fazo stantsiyasi o'rtasidagi masofa to'g'risidagi ma'lumotlar va hokazolar axborot bo'lishi mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining asosini axborotni biror maqsadga ko'ra ishlab chiqish, undan foydalanish va uni saqlash tahlil etadi. Insonning butun hayoti

axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash bilan bog'langan. Umuman olganda, inson bilimi-bu to'plangan va tartiblangan axborotdir.

Har bir insonning hayot tarsi kechirishi uchun, oziq-ovqat mahsulotlari zarurligi tabiiydir. Chunki inson bu moddalardan ularni bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tkazib ham foydalanadi. Buning uchun inson energiyani qo'llaydi. Lekin inson uchun energiya va modda bilan bir qatorda yana bir muxim bo'lgan tushuncha borki, u energiya va moddadan biror maqsadga ko'ra qanday foydalanishni ko'rsatuvchi tushuncha bo'lib, bu tushuncha axborot deb ataladi.

Biz kitob muta'lo qilamizmi, o'qiyamizmi, radiyo eshitamizmi, televizor ko'ramizmi, yoki suhbatlashamizmi bulardan qat'iy nazar, biz hamisha axborotni qayta ishlaymiz va qabul qilamiz. Bu shuni ko'rsatadiki, axborotni, insoniyatga ko'rsatilganda, uning holatini o'zgartiruvchi tasvir deb ham atashimiz mumkin.

Xullas, axborot energiya va modda kabi muhim tushuncha ega ekan. Axborotlarni qayta ishlash va to'plash ularni jarayonlarini o'z ichiga olar ekan.

Axborotning ma'nosi lotincha "information" so'zidan olingan bo'lib, «tavsiflash», «tushuntirish» degan ma'noni anglatadi.

Axborot, uchta muhim sifatga ega bo'lishi mumkin:

Axborot o'rganilayotgan narsa yoki hodisani har taraflama to'liq ifodalashi mumkin, ya'ni axborot to'liqlik sifatiga ega bo'lishi mumkin;


Axborotlar ma'lum vaqtda qimmatli bo'lishi mumkin, aks hollatda undan foydalanish extiyoji bo'lmaydi. Bu axborotning qimmatligini, sifatliligini ta'minlaydi;

Axborotlar ishonchli bo'ladi. Uni qayta ishlashga zarurat tug'ilmaydi. Axborotlar uziliksiz yoki uzlukli turlarga bo'linadi.

Masalan, atrof muhitdagi ob-havo holatini ko'rishimiz yoki istagan vaqtda bilishimiz mumkin. Bular uzluksiz axborotga misol bo'ladi.

Axborotlarni uzatish. Axborotlarni uzatishda ehtiyojdan kelib chiqib, uni bir insondan ikkinchi insonga, bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga har-xil vositalar yordamida yetkazib berilishi tushiniladi. Axborotlarni uzatishning har-xil usullari mavjud bo'lib, ular pochta orqali, kompyuter dasturlari yordamida,

aloqa tarmog'i orqali, transport vositalari yordami yo'rdami orqali uzatish mumkin. Qisqa vaqt ichida aloqa tarmog'i orqali axborotlarni uzoq masofaga uzatishimiz mumkin. Bunda axborotlarni uzatish vaqti va tezligi sezilarli darajada qisqaradi.



Axborotlarning turlari: tasvir, animatsiya, matn, audio va video. Bizga ma'lumki, axborotlarni insonlar bir-biriga uzatish jarayonida jadvalli ko'rinishdagi, matnli ko'rinishdagi, tovushli ko'rinishdagi va tasvirli ko'rinishdagi ma'lumotlardan foydalib kelinadi.

Matn. Matn-bu ma'lumotlarni ifodalash shakli bo'lib, u mazmunan yaxlit, yagona va tanlangan tilning belgilari ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Matnlar hujjalart asosi bo'lib, u tizimiga matn kiritish klaviatura orqali, nurli pero, mikrofon, yoki skaner orqali amalga oshiriladi. Matnlarga ishlov berish-bu matn muharriri deb ataluvchi maxsus amaliy dasturlar majmuasi tomonidan amalga oshirib kelinadi. Tarmoqlar yordamida matnlar ma'lumotlar bo'laklari ko'rinishlaridaj uzatiladi.

#### Tanlangan maqola


**Alisher Navoiy** (1441, fev. — 1501 yan.) — ulug' o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. G'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda «nizomi millati va d-din» (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadi.



Tasvir. Tasvir, biror xodisa, voqea, yoki jarayonlarni o'z ichda ifodalagan rasm bo'laklari va ranglardan iborat bo'gan ma'lumotlardir. Rasm, manzara, statistik ma'lumotlar diagrammasi, matematik funktsiyalar grafigi va shunga o'xshash ma'lumotlar tasvir hisoblanib kelinadi. Axborot kommunikasiyalar yordamida tasvirlarga ishlov berishni to'rt guruhga ajratishimiz mumkin bo'ladi:

1. Rangli va kulrang tasvirlar;
2. Bir necha va ikki xil rangli tasvirlar;
3. To'g'ri va uzluksiz egri chiziqlar;
4. Ko'pburchak yoki nuqtalardan iborat tasvirlar.

Bu turkumlash tasvirni ko'rib idrok qilish mexanizmi bilan emas, balki ularni qayta ishlash va taqdim etishga yondashish bilan bog'liqdir.



Animatsiyalar ma'lum tezlikda tasvirlarni almashtirish usulidir. Bu vaqtda ma'lum vaqt kesimida, ma'lum raqamdagi (son)dagi bir xil o'lchamga ega bo'lgan tasvirlar tezkor o'rin almashiniladi. Bunda multiplikatsiyaga o'xshash harakatlanuvchi animatsion tasvir paydo bo'ladi. Video va filmlar ma'lumotlarning asosini animatsiyalar tashkil etib, bunda filmlar namoyishida bir soniyada 25-30 ta tasvir tezlikda almashtiriladi. Shunga asosan, video film tarkibidagi tasvirlarni hisoblab chiqish mumkin, ya'ni olitmish minutlik film 3600 soniyani, undagi tasvirlarni esa 90 mingtani tahlil qiladi.

Animatsiyalar orqali quyidagi amallarni oshirishimiz mumkin:

- ✓ matn axborotini qismlashni;
- ✓ rasm harakatlarini;
- ✓ tasvir qismlarining so'zsiz harakati jarayonini;
- ✓ fizik va kimyoviy jarayonlarni;

- ✓ tarixiy janglarning so'zsiz harakatini;
- ✓ tabiiy hodisalar jarayonini;
- ✓ texnologik jarayonlarni;
- ✓ ijtimoiy hodisalar jarayonini;
- ✓ siyosiy hodisalar jarayonini;

Axborotning o'lchov birliklari va hajm tushunchalari. Har qanday maxsulotning o'lchov birligi mavjud bo'lib, masalan litr, metr, kilometr, kilogramm, volt, ampermetr, kubometr va x.kz... Shunga o'xshash axborotlarni ham o'lchov birliklari mavjud bo'lib, ular ikkilik sanoq sistemasida axborotning eng kichik birligi bit(binary) hisoblanadi, bit bu bitta "1" yoki bitta "0". Bunda signallarning mavjudligi "1" bilan yoki yo'qligi "0" bilan ifodalanadi. Bitlarning butun deb qabul qilingan tutash ketma-ketligi bayt deyiladi. Bayt sakkiz bitga teng deb qabul qilingan. Shuningdek katta hajmdagi ma'lumotlar sig'imini o'lchash uchun kilobayt (kb), megabayt (mb), gigabayt (gb), terrabayt (tb) va x.k.o'lchamlar mavjud:

1 Kb =1024 bayt,

1 Mb=1024 Kbayt,

1 Gb =1024 Mbayt,

1 Tb =1024 Gbayt.

birlik	o'qilishi	qiymati
1 bayt	bayt	8 bit
1 Kbayt	Kilobayt	1024bayt( $2^{10}$ )
1Mbayt	Megobayt	1024 Kbayt=1048576 bayt ( $2^{20}$ )
1 Gbayt	Gigabayt	1024 Mbayt=1073741824 bayt ( $2^{30}$ )
1Tbayt	Terabayt	1024 Gbayt=1099511697776 bayt ( $2^{40}$ )
1Pbayt	Petobayt	1024 Tbayt=125899978522624 bayt ( $2^{50}$ )
1 Ebayt	Ekzabayt	1024 Pbayt=15292150406846976 bayt ( $2^{60}$ )
1Zbayt	Zetabayt	1024 Ebayt=1180591620717411303424 bayt ( $2^{70}$ )
1Ybayt	Yottabayt	1024 Zbayt=1208925819614629174706176 bayt ( $2^{80}$ )

Ishtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlarni uzatish ketma-ketligi amalga oshirilgan bo'lib, ular bir bayt axborot bitlar bo'yicha uzatiladi. Tarmoq sohasida kilobayt va megabaytlar fanning boshqa sohasidagidek o'nli sanoq sistemasiga mos keladi.

Hozirgi vaqtda axborotlarni saqlash uchun, ularni kodlashimiz mumkin bo'ladi. Har qanday axborot kodlar orqali ifodalanadi. Shunday qilib biz turli xil yo'zuvlar yo'zganimizda, aslida axborotlarni malum belgilar orqali kodlaymiz, xattoki musiqalarimizni ham kodlashimiz mumkin. Bunday kodlash sistemalaridan biri musiqali notalar orqali ifodalashidir. Matnli(tekistli) va ovoqli(audio) axborotlardan boshqa tasvirli rang ko'rinishidagi axborotlarni ham saqlashimiz mumkin. Tasvir ranglar ham kodlar orqali saqlanadi. Tasvir ranglar nuqtalardan iborat bo'lib, bu nuqtalarning koordinatalarini raqamlar sifatida saqlashimiz mumkin. Har bir nuqtaning rangini ham sonlar orqali saqlash mumkin. Bu sonlar tufayli shakllarni ekranda tasvirlash qobiliyatiga egadir. Chunki, kompyuter axborotlarni raqamli axborotga aylantirib beradi va ular ustida amallar bajariladi.

Shunday qilib axborotlar almashishda ikki xil usulda bajariladi: birinchisi kodlash, ikkinchisi dekodlashdir.

Kodlash-axborotlarni boshlang'ich shaklidan ularni saqlash, uzatish va qayta ishlash uchun qulay shakliga o'tkazishlik jarayonidir.

Dekodlash-kodlashning aksaridir, axborotlarni boshlag'ich shakliga o'kazish jarayoni.

Axborot texnologiyalarning rivojlanishiga bog'liq holda axborotlarni kodlashning va dekodlashning har xil usullari topildi. Shunday usullaridan birini tanlash, kodlanishi lozim bo'lgan axborotning turiga bog'liqdir.

Axborotning hayotimizda va kundalik tarzimizda tutgan o'rnidir. Jamiyatimizni axborotlashtirish: ilmiy tadqiqot, loyiha, mehnat, aholiga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, tahliliy-iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini axborotlashtirish kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatimizda axborot ham bilim manbai ham eng asosiy muloqot vositasi bo'lib hisoblanib kelinadi. Hayotimizda axborotlashtirish televidenie, radio, Internet tizimining ahamiyati va ommaviy-axborot vositalari juda yuqori darajadadir. Har bir inson transport vositalari qatnovi jadvalini, bank va biznes ma'lumotlarini, ob-havo prognozini, hamda kundalik yangiliklardan xabardor bo'lishiga majburdir. Agarda inson yangiliklardan va kundalik axborotlardan xabardor bo'lmas ekan u hayotimizdan uzilib qolishi mumkindirlar.

Fayl turlari va ularning tushunchasi. Fayllar tanho(yagona) yaxlit deb qaraladigan ma'lumotlar yoki dastur kodlari yigindisidir. Fayllar o'z nomiga ega bo'lib va tizimda saqlanadigan ma'lumotlarning asosiy elementlari bo'lgan ob'ektlardir. Foydalanuvchi fayllarni nusxalashi, yaratishi, jo'natishi yo'q qilishi mumkin bo'ladi. Har bir fayllar axborot va undagi atributlardan iborat bo'ladi. Fayllarning atributlariga birinchi navbatda yaratilish sanasi va vaqti, uning nomi, axborot turi, undan foydalanish usullari hamda ulardan foydalanishga ruxsat berish shartlari kiradi.

Fayllarning quyidagi turlari bo'linadi:

- ✓ matnli ma'lumotlarni o'z ichida jamlagan fayllar;
- ✓ grafikli ma'lumotlarni o'z ichida jamlagan fayllar;
- ✓ musiqali ma'lumotlarni o'z ichida jamlagan fayllar;
- ✓ videoli ma'lumotlarni o'z ichida jamlagan fayllar.

Fayllar tarkibida bajariladigan amallar. Fayllar o'z nomiga ega bo'lgan va o'z ichida axborotlarni jamlagan ob'ektdir. Shundayqilib, ulardan foydalanish vaqtida ular ustida bir qancha amallarni bajarishimiz mumkin. Bularga:

- ✓ fayllarni nusxalash;
- ✓ fayllarni yaratish;
- ✓ fayllarni uzatish;
- ✓ fayllarni o'zgartirish;
- ✓ fayllarni o'chirish.

Fayllarni konvertatsiya qilish. Odatda fayllar o'z ichida saqlangan ma'lumotlarni turlariga qarab har xil ko'rinishga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bu

fayllardagi ma'lumotlardan foydalanish uchun ularni bir turdan boshqasiga o'girishga to'g'ri keladi. Ushbu o'girish jarayoni konvertatsiya deb nomlanadi. Bu konvertatsiya jarayonlarini, ma'lumotlarni bir formatdan boshqasiga, bir turdan boshqasiga o'girish maxsus dasturiy vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Axborot tizimlari va resurslari. O'zbekiston Respublikasining 560-II sonli 2003 yil 11 dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga asosan quyidagi ta'rif berilgan.


Axborot hujjatlarning alohida to'plamlari, axborot resurslari-alohida hujjatlar, axborot tizimlaridagi (arxivlardagi, kutubxonalardagi, fondlardagi, boshqa axborot tizimlaridagi va ma'lumotlar banklaridagi) hujjatlarning to'plamidir.

Axborotlarni ommaviyligi-bunga cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, audio, audiovisual, bosma, hamda boshqa material va xabarlar kiradi.

Axborot tizimi bu axborotlarni saqlash, izlash, to'plash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, jami axborot resurslari, tahliliy jihatdan tartibga solingan, aloqa vositalari va axborot texnologiyalaridir.

Axborotning ijobiy va salbiy ta'siri. Axborotning ijobiy jihati shundan iboratki, o'z vaqtida olingan sifatli axborot va to'g'ri turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To'g'ri sifatli axborot insonlar, bilim olishi, yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi. Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi vaqtda ayrim evropa davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan qarashlar va axborotlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar ham mavjud. Bunday ma'lumotlar komputer tarmog'lari orqali keng tarqalib kelmoqda. SMS xabarlar va Internet tarmoqlari orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, an'analarimiz va qadriyatlarimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan noto'g'ri axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri

yo'llarga boshlashi mumkin. Hamma vaqt axborotlardan to'g'ri va o'rinli foydalanish zarur.



#### NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

- 1.1. Talimda axborot texnologiyalari fanining asosiy tushunchalari qaysilar va ularni izohlang.
- 1.2. Axborot tushunchasi qanday so'zdan olingan va ta'rif bering.
- 1.3. Algoritm nima va u qanday usullarda beriladi?
- 1.4. Dastur va dasturlash tillari haqida ma'lumot bering.
- 1.5. Axborot texnologiyasi tushunchasiga ta'rif bering.
- 1.6. Axborotli texnologiyalarga misollar keltiring.

## II BOB. MATNLI AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASH TEKNOLOGIYASI

### 2.1. Matnli hujjatlar bilan ishlash

**Tayanch tushuncha va iboralar:** matn prosessori, matn muxarriri, tahrirlash, matnlarni kiritish, saqlash, jadval tahrirlash, chop etish, xotiraga yo'zish, xotiradan chiqarish, avtofiguralar, matnli hujjatlarga rasmlar joylashtirish, matnli hujjatlarga formulalar kiritish va taxrirlash.

#### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. MS Word matn prosessori imkoniyatlari uning versiyalarini ishlab chiqarishiga qaramasdan o'zgarishsiz qolaveradi deb fikr yuritasiz. Bu aytilgan fikrni to'g'ri yo'ki noto'g'ri deb hisoblaysizmi yoki yo'qmi. Javobingizni tushuntirib bering.
2. MS Word matn prosessorida faqat matnlar ustida ishlash mumkin bo'lmasdan unda grafika va jadval bilan ham ishlashi mumkin. Dasturning bundan boshqa imkoniyatlari ham mavjud deb yo'laysizmi? Siz shu fikrga qo'shilasizmi? Agar sizda boshqa fikr bo'lsa javoblaringizni izohlab bering.

**Darsning maqsadi:** Talabalarga matnli hujjatlar bilan ishlash vositalari haqida ma'lumot berib o'ting.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Matnli hujjatlar bilan ishlash vositalari haqida so'zlab bera oladi.
2. Matnli hujjatlar bilan ishlash vositalarini izohlay oladi.

Kompyuterlarda matnli hujjatlarni tayyorlashda asosan uch guruh amallardan foydalaniladi: muharrirlik qilish, formatlash, kiritish,<sup>1</sup> Kiritish amalilari - berilgan matnlarning tashqi shaklini elektron ko'rinishga o'tkazish, kompyuterlar xotirasida saqlanadigan fayllarda ifodalanishidir.

Matnlarni kiritish faqat tugmachalar yordamida bo'lmasdan, skanerlash yo'li bilan ham matnlarni kiritish, tasvirlarni aniqlash dasturlari yordamida

---

<sup>1</sup> V.Rajaraman. Introduction to Informasion technology (second edition). PHI Learning Private Limited. 2016. 42-p

hujjatlarni grafikli tasvirlar ko'rinishidan matnli ko'rinishga o'tkazishlardan iborat bo'ladi.

MS Word-Windows muhitida ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib Microsoft Office tarkibiga kiruvchi dasturlardan biri bo'lib, unlarni matn muharriri deyiladi. U xar xil hujjatlar, xatlar, va hisobotlar tayyorlashda qulay vositadir. Shuningdek uning yordamida anketalar va blanklar, risolalar xamda maqolalar xam tayyorlash mumkin.

MS Wordda matnlarni yaratishda, uning tarkibiga kiritilgan, ko'plab shablonlar tizimi va formatlash usullaridan foydalaniladi. Word WYSIWYG (nimani ko'rsang shuni olasan, ekranda qanday ko'rinsa, chop etilganda ham qog'ozda shundayligicha ko'rinadi) tarkibigagi muharrirlar guruxiga kiradi.

Shuningdek MS Word matnli fayllarni o'zining shaxsiy ikkilik formatida .doc kengaytmali fayllar sifatida saqlanadi. Bu formatlarni uning matnli laxzasi RTF format (Rich Text Format) sifatida Microsoft firmasi tomonidan hujjatlashtirilgan va boshqa firmalarning matn protsessorlari tomonidan xam qo'llashi uchun qabul qilingan. RTF formati o'zining matnli tuzilmasi bo'yicha kompyuter viruslarini tarqatish nuqtai nazaridan qaraganda bir muncha xavfsizdir. Shuningdek .doc kengaytmali formatida fayllar kompyuterlar orasida virus tarqatish vositasi bo'lib xizmat qiib kelmoqda. Bu protsessorning oxirgi daqiqalari fayllarni gipermatnli formatlar(.html yoki .htm)da xam saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

MS Word matn protsessorida hujjat bilan ishlashni engillashtirishga xizmat qiladigan bir nechta lentalar ishlatiladi. Ayrim uskuna panellari (lentalar) va ularning vazifalari bilan tanishamiz.

Almashishlar buferi va standartnaya fayl bilan ishlaydigan buyruqlarni ifodalovchi tugmachalaridan iborat.

Formatirovanie bo'limi bu matnlarni formatlash uchun ishlatiladi.

Visual Basicda MS Word hujjati bilan hamkorlikda dastur yaratishga xizmat qiladi.



WordArtda figurali matn yaratish buyruqlari joylashgan tugmachalardan tashkil topgant.

Avtotekstda matnlarda ko'p takrorlanadigan matn elementlarini almashtirish yoki tezda joylashdir.

Baza Dannix bu hujjat jadvallarida ma'lumotlar omborini yaratishi va ular bilan ishlash uchun xizmat qiladi.

Nastroyka Izobrajeniyada grafikli tasvirlar bilan ishlovchi buyruqlarni chaqiruvchi tugmachalar to'plami joylashgan.

Retsenzirovanieda taqrizlar yoki xabarlar joylash uchun xizmat qiladi.

Risovanieda hujjatga grafikali ob'ektlar joylash uchun xizmat qiladi.

Formalar ma'lumotlar ombori bilan ishlaganda jadval, forma, ro'yxat, kiritish maydonlari yaratish tugmachalar bilan ifodalanadi.

Elementi upravleniya-hujjatlarga pereklyuchatellar, va tugmachalar Visual Basicning boshqa elementlarini joylaydi.

MS Word maqola yoki xatlar yaratishning bir necha shablonlarini taklif qiladi. Bitta shablonlardan ko'p maratoba foydalanishlik mumkin.

Hujjatni saqlash, yaratish, ochish va yopish uchun "Fayl" tavsiyanomasi bo'limlaridan yoki "Standartnaya" panelidagi tugmachalardan foydalanishlik mumkin bo'ladi.

MS Word matn muharriri ma'lumotlarni boshqa formatlarda xam saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Biror hujjatni Microsoft Word formatidan farqli ravishda formatda saqlash uchun hujjatni saqlash darchasidagi "Tip fayla" ro'yxat maydonidan kerakli format tanlanadi va "Soxranit" tugmasi bosilishi kerak.

## **2.2. MS Word lentalar bilan ishlash.**

**Darsning maqsadi:** Talabalarni Word matn prosessorida lentalar bilan tanishtirish, fayllarni saqlash usullari xaqida ma'lumot berish.


### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. MS Word matn protsessorida lentalar bilan ishlash va unda fayllarni saqlash xaqida so'zlab bera oladi.


2. MS Word protsessorida lentalar bilan tanishish va unda ishlash elementlarini izohlay oladi.

MS Word matnli fayllarni o'zining shaxsiy ikkilik formatida .docx kengaytmali fayl sifatida saqlaydi. Bu formatning matnli laxzasi RTF format (Rich Text Format) sifatida Microsoft firmasi tomonidan hujjatlashtirilgan va boshqa ayrim firmalarning matn protsessorlari tomonidan xam qo'llash uchun qabul qilingan. RTF formati o'zining matnli tuzilmasi bo'yicha kompyuter viruslarini tarqatish nuqtai nazaridan qaraganda ancha xavfsizdir. Xozirda .doc formatidagi fayllar kompyuterlar orasida virus tarqatish vositasi bo'lib hizmat qilmoqda. Bu protsessorning oxirgi laxzalari fayllarni gipermatnli formatlarda (.html yoki .htm) xam saqlash imkoniyatiga ega.

MS Word matn protsessorida hujjatlar bilan ishlashni osonlashtirishga xizmat qiladigan bir nechta lentalar (uskunalar panellari) ishlatiladi. Bu foydalanuvchilar uchun juda qulaydir. Lentalarni sozlash o'zimizni qo'limizda. Ayrim lentalar va ularning vazifalari bilan tanishamiz.



2-rasm. Lentalar masala qo'yilishiga qarab zarur funksiyalarni o'z ichiga oladi. Glavnaya lentasi o'z ichiga formatlash usullarini, qidiruv tizimi va almashuv buferini o'z ichiga oladi:



Vstavka menyusida jadvallar qo'yish, kolontitul, formula va simvollar va boshqa grafik ob'ektlar qo'yish mumkin:

### **WORD muharriri imkoniyatlari:**

- Matnlarni kiritish va tahrir qilish;
- Matnni chop etishda avval ekranda uning shaklini ko'zdan kechirish;

- Hujjatlarning tayyor shakllari bilan ishlash;
- Formatlash usullaridan foydalanish;
- Xatlarni amaldagi qoidalar asosida tayyorlash;
- Blankalarni tayyorlash;
- Jadvallar bilan ishlash;
- Zarur holda yordamchi ko'rsatma berish;
- Formulalar yozish;
- Imloni tekshirish;
- So'zlarni bo'g'inlab ko'chirish;
- WINDOWS ilovalari ma'lumotlaridan foydalanish;
- WORD Art yordamida reklamali matnlar tayyorlash;
- Diagrammalar va grafiklar, rasmlar va hokazolar chizish.

Word 2010 dasturida ishlashni boshlash.<sup>2</sup>

Microsoft Word, Windows muhitida ishlash uchun mo'ljallangan Microsoft Office tarkibiga kiruvchi dasturlardan biri bo'lib, uni matn muharriri deb atashadi. U xar xil xatlar, hujjatlar va hisobotlar tayyorlashda qulay vositadir. Shuningdek uning yordamida blanklar va anketalar, maqolalar xamda risolalar xam tayyorlash mumkin.

Wordda xujjatlarni yaratishda, uning tarkibiga kiritilgan, ko'plab shablonlar tizimi va formatlash uslublaridan foydalaniladi. Word WYSIWYG (nimani ko'rsang shuni olasan, yahni ekranda qanday ko'rinsa, chop etilganda qog'ozda xam shundayligicha ko'rinadi) turidagi muharrirlar guruxiga kiradi.


Microsoft Word 2010 дастурини ишга тушириш бир нечта усуллари мавжуд:

1. Pusk → Vse programmi → Microsoft office 2010 → Word 2010ni tanlash orqali;


---

<sup>2</sup> V.Rajaraman. Informasiyon to Informatsiyon texnologiy (second editiyon). PHI Learning Private Limited. Indiya, 2016. 42-p.

2. Agar ishchi stolda Microsoft office paneli mavjud bo'lsa, undagi Word yorlig'iga sichqoncha ko'rsatkichi keltirilib, chap tugma bosiladi;
3. Kontekst menyu orqali → Sozdat→ Документ Microsoft Word



Hosil bo'lgan kontekst menyudan <<MS Word 2010>> ishga tushiriladi.



Microsoft Word dasturi oynasining umumiy ko'rinishi quyidagi rasmda keltirilgan:



Fayllar bilan amallar bajarishning asosiy buyruqlari Office tugmachalari menyusida yig'ilgan.

Faylni yaratish uchun “Создать” bandi mo'ljallangan. Bu bandni tanlagandan keyin, “Создание документов” oynasini ko'rish mumkin. Oynaning chap qismida hujjat yaratish shablon o'lchami toifasini ko'rsatishi kerak.

Oddiy hujjatni yaratish uchun “Пустые и последние” varianti tanlanadi. Shundan so'ng oynaning o'ng qismidagi “Новый документ”ni ajrating va “Создать” tugmasini bosing. Natijada ekranda “Документ – номер” nomli yangi bosh hujjat tasvirlanadi.

Microsoft Word 2007 ning xususiyatlaridan yana biri – joriy hujjat asosida yangi fayl yaratishdir. Buning uchun “Из существующего документа” bandidan foydalanib, diskdan yangi fayl yaratish uchun, kerak bo'ladigan faylni olish mumkin. Bunda olingan faylning tarkibi yangi hujjatda joylashadi. Faylni yaratishning bunday usuli mavjud fayl asosida yangi hujjat yaratish uchun qulay hisoblanadi.

Word 2007 versiyasi Word matn muharririning oldingi hamma versiyalarida, yaratilgan hujjatlar bilan ishlaydi. Agar oldingi versiyada yaratilgan hujjatlarni Word 2007da ochish kerak bo'lsa, unda funksional chegaralangan rejim ishga tushiriladi.

Bu to'g'ridagi ma'lumot ushbu matn muharririning sarlavha satrida ko'rinadi. Bu rejimda dasturning ba'zi funksiyalarini qo'llash mumkin emas. Word 2007 ning hamma funksiyalarini ishlatish uchun faylni konvertatsiyalash lozim bo'ladi.

Buning uchun "Office" tugmasini bosish va asosiy menyudan "Преобразовать" bandini tanlash kerak. Natijada sarlavha satrida funksional chegaralanish to'g'risida yozuv o'qiladi va siz dasturning hamma funksiyalarini ishlatishingiz mumkin bo'ladi.

Agar matn muharririning oldingi versiyalarida saqlangan fayl ochilgan bo'lsa, "Преобразовать" bandida qatnashishi mumkin.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Lentalar bilan ishlash. MS Word dasturi imkoniyatlari.
2. Uskunalar paneli va u bilan ishlash. Hujjatda har hil shriftlar bilan ishlash.

### **2.3. MS Wordda hujjatlarni formatlash**

**Darsning maqsadi:** Talabalarga MS Word protsessorida matnlarni xar xil formatlarda saqlash imkoniyatlarini berish.

#### **Identiv o'quv madsadlari:**

Matn protsessorlarining, shundan Word dasturining, muhim xususiyatlaridan biri matnni xar xil formatlash imkoniyati mavjudligidir. Formatlashni uch xil ko'rinishini farqlashadi. Belgilarni formatlash – bunda gap asosan shriftni o'zgartirilishi xaqida ketadi.

- Abzastni formatlash-bunda matndagi aloxida abzastlar maydonlari o'lchamlarini, satrlar orasidagi intervallarni o'zgartirish va abzastlarni tekislash tushiniladi.

- Sahifalarni formatlash, sahifa ko'rinishini va o'lchamlarini tanlash, xoshiyalar o'lchamlarini o'zgartirish nazarda tutiladi.




Belgilarni formatlash matn yozishda shrift rangi, o'lchami va uslubini o'zgartirish amallarini o'z ichiga oladi. Buning uchun “Formatirovanie” uskunalar paneli tugmachalaridan xam foydalanish mumkin.









Abzastlarni formatlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- abzastlarni tekislash;
- abzast chegaralarini o'rnatish;
- abzast birinchi satri boshlanadigan chegarani o'rnatish;
- satrlar orasidagi masofani o'rnatish;
- abzastlar orasidagi masofani o'rnatish;
- abzastni sahifada joylashishi nazorati.


Abzastlarni tekislash “Formatirovanie” uskunalar paneli yordamida amalga oshirilishi mumkin. Odatda Word xamma abzastlarni chapga tekislaydi, bunda barcha satrlar bitta vertikal chiziqdan boshlan ganday ko'rinadi. Tekislashni sahifaning markaziga yoki o'ng tarafiga, shuningdek bitta blok shaklida butun sahifa bo'ylab ikki tarafga xam tashkil qilish mumkin. Abzasta chegaralari va birinchi satr boshlanadigan joyni gorizontal chizg'ich yordamida o'rnatiladi. Abzastga chegaralarining asosiy kattaliklarini Format tavsiyanomasining Abzast bo'limi yordamida xam o'rnatish mumkin. Odatda satrlar orasidagi masofa Wordda bir interval qilib belgilangan. Ya'ni, bu bitta satr balandligiga teng. Biroq u bir yarim, ikki va undan xam ko'proq interval bo'lishi mumkin. Satrlar orasidagi intervalni o'zgartirish uchun Format tavsiyanomasining Abzast bo'limidagi “mejestrochnqy” maydonidagi ro'yxatdan foydalanish mumkin.

#### **2.4. Microsoft Word muharririda matnni formatlash imkoniyatlari.**

1.  -Стиль –Matn stilini o'zgartirish
- 2.-  - Matn shriftini o'zgartirish
3.  - Matn shrift kattaligini o'zgartirish

4. - Эффект начертания – qalin harflar holatiga o'tish yoki undan chiqib ketish
5. - Эффект начертания – Qiyshiq harflar holatiga o'tish yoki undan chiqib ketish
6. - Эффект начертания – Chiziqli harflar holatiga o'tish yoki undan chiqib ketish
7.  - Центровка по левому полю – Matnni (kursor turgan abzatsni) chap chegara bo'yicha tekkislash
- 8.-  Центровка по центру - Matnni (kursor turgan abzatsni) markaz bo'yicha tekkislash
- 9.- Центровка по правому полю - Matnni (kursor turgan abzatsni) o'ng chegara bo'yicha tekkislash
10.  - Центровка по ширине - Matnni (kursor turgan abzatsni) ikkala tomon chegaralari bo'yicha tekkislash
- 11.-  Список – Raqamli ro'yxat ko'rinishiga o'tkazish yoki undan chiqib ketish
- 12.- Список – Belgili ro'yxat ko'rinishiga o'tkazish yoki undan chiqib ketish
13.  Абзац-Abzatsni tashqariga chiqarish
14.  Абзац - Abzatsni ichkariga tortib olish
- 15.-  Внешние границы – Abzats chegaralarini ramka bilan belgilash
- 16.-  Выделение цветом – Tanlangan matn tagini rang bilan bo'yash
- 17.- Цвет шрифта - Tanlangan matn harflar rangini o'zgartirish Uskunalar panelida (Glavnaya lentasi bilan formatlash) ishlashda bizga tezkor tugmalar ham yordam beradi ular quydagi tugmalar:





## 2.5. Klaviatura orqali formatlash

(Ctrl+B)- kiritilayotgan matni qalin qilib yozish

(Ctrl+I)- kiritilayotgan matni qiya qilib yozish

(Ctrl+u)- kiritilayotgan matinni tagiga chizib yozish (Ctrl+L)- kiritilgan matni chapdan yozish

(Ctrl+E)- kiritilayotgan matni o'rtadan yozish

(Ctrl+R)- kiritilayotgan matni o'ngdan yozish

(Ctrl+J)- kiritilayotgan matni bir tekisda yozish (Ctrl+X)- kiritilgan matni qirqib olish

(Ctrl+C)- kiritilayotgan matni nusxalab olish


(Ctrl+V)- nusxalangan matnlarni joylashtirish

(Ctrl+S)- kiritilayotgan matnlarni saqlash

(Ctrl+A)- kiritilayotgan matnlarni belgilash


WORD matn muharririda shriftlar bilan ishlash jarayonida biz quyidagi amallarni bajaramiz.

1. Kiritilayotgan matnlarni holatlarini o'zgartirish uchun avval matnlarni belgilab olamiz matn belgilangandan so'ng quyidagi amallarni bajaramiz



Bu amal bajarilgandan so'ng matnlarning holarlari o'zgaradi


Agar biz matn shakllarini o'zgartirmoqchi bo'lsak quydagi amallar bajariladi



Natijada matn ko'rinishi o'zgaradi


Ushbu oynaning yuqori kismida xato soz joylashgan matn kismi kursatiladi. Pastki kismda esa shu sozni urniga kuyish mumkin bulgan sozlar namunalar (variantlar) ruyxati. Sichkoncha yordamida kerakli variantni tanlab ung tomondagi **Зменить** tugmasini bosamiz va natijada xato soz urniga biz tanlagan variant yoziladi. Agar kursatilgan xato soz tugri yozilgan bulsa u xolda ung tomondagi **Пропустить** tugmasini bosamiz va natijada shu soz uzgarmay koladi. Ung tomondagi **Пропустить все** tugmasi yordamida esa kursatilgan xato sozni butun matnda uzgartirmay koldiramiz. Agar esa butun matndagi xato sozlar xammasini

Quyidagi amallar bajarilsa matnlar rangi o'zgaradi



Quyidagi amallar bajarilsa matn harflarining ranglari o'zgaradi





### Nazorat topshiriqlari

1. MS Wordning eng sodda va takomillashgan versiyalari qaysilar?
2. Word matnli protsessorini ishga tushirish tartibi qanday amalga oshiriladi?
3. Menyu satridagi har bir menyu buyruqlarini, ularning vazifalarini farqlang.
4. Word matnli protsessor yordamida bir vaqtning o'zida bir nechta hujjatlar bilan ishlash tartibini farqlab bering.
5. Word matn protsessorida matnlarni kiritish va muharrirlik qilish amallari qanday amalga oshiriladi?
6. Word matn protsessorida jadvallar tashkil etishning amallarini bajaring.
7. Word matn protsessorida shakllar va blanklar tashkil etish amallarini bajaring.
8. Word matn protsessorida oldindan ko'rish va hujjatlarni chop etish amallari qanday tartibda bajariladi?
9. O'z avtobiografiyangiz haqida ma'lumotlar kiriting va muharrirlik qilish va formatlash ishlarini bajaring va tahlil qiling?
10. Hujjatlarda har hil shriftlar bilan ishlash.
11. Word matn muharriridagi biror jumlaning izlab topish va uning almashtirish.

12. Tayyorlanayotgan hujjatlarning bir qismini boshqa shriftlarda yozish.
13. Hujjatlarning biror qismini qirqib boshqa joyga olib qo'yish.
14. Worddagi hujjatlarni tahrirlab qayta o'z joyiga saqlash.
15. Hujjatlarni ostiga chizib yozish va bu amallardan voz kechish.
16. Oynalarni yoyish, yigish, ochish va yopish.
17. Grafikali dasturlarning xarakterli kattaliklarini sanab bering?

#### **Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Matnlarni kiritish, muharrirlik qilish va formatlash tushunchalari mazmunini ajratish haqida ma'lumotlar to'plang.
2. WORD matn protsessori imkoniyatlari va ahamiyatini asoslash va u bilan ishlashning asosiy usullarini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar to'plang.

#### **AMALIY MASHGULOT**

**Mavzu:** Matinli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari.

**Darsning maqsadi:** WORD dasturi bilan muloqot qilish va unda ishlash malakasini oshirish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. WORD dasturi haqida ma'lumotlarga ega bo'la oladi.
2. WORD dasturini boshqarish buyruqlari tavsifini bera oladi.
3. WORD ishchi oynasi tuzilishi tavsifini bera oladi.
4. WORD dasturi bilan ishlash malakasiga ega bo'la oladi.

**Kerakli jihoz va materiallar:** Shaxsiy kompyuter, Windows operatsion tizimi, WORD matn protsessori, ma'ruza matnlari, har xil adabiyotlar, ma'ruza daftari.

#### **Ishni bajarish tartibi:**

1. Kompyuterni ishga tushirish tartibi bo'yicha ishga tushiring.
2. Kompyuter avtomatik ravishda biror dastur bilan ishlashga o'tsa, undan Windows tizimi bilan ishlash rejimiga o'tkazing.
3. WORD matn protsessorini ishga tushiring.

4. WORD dasturi ishchi oynasi tashkil etuvchilarini ekrandan olish va joylashtirish ishlarini bajaring.
5. WORD dasturi ishchi oynasiga Standart va Format uskunalar panelini joriy qiling.
6. WORD ishchi oynasiga o'zingizning tarjimai holingizni kiriting. Bunda bosh harflarda mavzuni «TARJIMAI HOL» deb nomlang va u ishchi varaqning markazida joylashsin. Matnlar kichik harflarda, 14 o'lchamli o'zbekcha shriftlarning birida hosil qilinsin.
7. Hosil qilingan tarjimai holni kompyuter xotirasiga o'zingizning ismingiz bilan nomlangan papka yaratib, faylga mos nom qo'yib saqlang.
8. WORD dasturida jadvalli ma'lumotlar bilan ishlashni o'rganish maqsadida o'zingizning oilangiz tarkibi to'g'risida ma'lumot tayyorlang. Buning uchun yangi ishchi oyna yaratib, quyidagicha jadval hosil qiling:

№	Oilangiz a'zolari	Tug'ilgan yili	Ish faoliyati	Yashash joyi
1.				
2.				
3.				

9. Tayyorlangan ma'lumotlarni o'zingiz hosil qilgan papkaga mos fayl nomi qo'yib saqlab qo'ying.
10. Shaxsiy kompyuteringizni o'chirish tartibi bo'yicha o'chiring.

### III BOB. ELEKTRON JADVALLAR VA ULAR BILAN ISHLASH

#### 3.1. Elektron jadvallar bilan ishlash texnologiyasi.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** MS Excel dasturi, elektron jadval, qator, ustun, yacheyka, ishchi kitob, formula, funksiya, gistogramma, diagramma.

#### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**


1. MS Excel dasturi ishchi oynasidagi uskunalar panelida maxsus tugmachalar ish jarayonida yetarli bo'lmasada, uni o'rnatish uchun qanday amallar bajarish kerak bo'ladi. Javobingizni izohlab bering.
2. MS Excel dasturida funksiya va formulalardan foydalanishda matematik amallarni bajarish tadbirlarni yaxshi o'zlashtirish zarur degan fikr mavjud bo'ladi. Ushbu fikrga siz qanday qaraysiz? Sizda agar boshqa fikr bo'lsa javobingizni tushuntiring.


**Darsning maqsadi:** MS Excel jadval muharriri haqida ma'lumot berish, imkoniyatlaridan foydalanishni o'rgatish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**


1. MS Excel dasturi va uning imkoniyatlarini so'zlab bera oladi.
2. MS Excel dasturida ishlash ko'nikmasiga ega bo'la oladi.

MS Excel – jadval muharririning ishchi stoli


Jadvallar muharriri MS Excel WINDOWS OT- da ishlash uchun yaratilgan bo'lib, unlari ishga tushirish uchun biz Pusk menyusiga kirib Vse programmi bo'limni tanlaymiz va shu bo'limda MS Office tarkibiga kirib  MS Excel dasturini ishga tushuramiz, yoki C: diskdagi programm Files ichidagi MS Office papka ichidagi Excel.exe faylni ishga tushiramiz. Natijada dastur ishga tushadi. Dastur ishga tushgach siz monitorda uning oynasini ko'rasiz. Oynaning asosiy qismlarida nomi, satri, menyu satri, yordamchi tugmalar satri, formulalar satri, ish sohasi va ma'lumotlar satirlari kiradi.



Satr nomida aktiv bo'lgan jadvalning nomi yoziladi, agar aktiv jadval yangi yaratilgan bo'lsa u holda uning nomi KNIGA 1 ko'rinishida bo'ladi.










Tanlangan xona quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

Kursor 3 xil bo'lishi mumkin:

- Oq rangli katta plyus - xona tanlash uchun. Xonani ustiga sichqonchani olib kelganimizda paydo bo'ladi.
- Strelka - xona yoki ob'ektlarni tanlab boshqa joyga ko'chirib olish uchun. Xona tagidagi chegarasiga yoki ob'ektning ustiga sichqonchani olib kelganimizda paydo bo'ladi.
- Qora rangli kichkina plyus - xona ichidagi ma'lumotlarga o'xshash ma'lumotlar bilan boshqa yonidagi xonalarni avtoto'ldirish. Xonaning pastki o'ng tomondagi burchagida joylashgan nuqtaga sichqoncha bilan ko'rsatganimizda paydo bo'ladi.



MS Excel dasturdagi har bitta xona o'zining xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlarni ko'rish va o'zgartirish uchun shu xonani tanlab «CTRL» tugmalarni bosamiz. Natijada ekranda oyna paydo bo'ladi.




Issshchi oynaning CHISLO qismi yordamida xonaning ma'lumotlar turini (oddiy, raqam, pul, kun, vaqt, foiz, kasr va boshqa) o'zgartirishimiz mumkin. ViRAVNIVANIE qismi yordamida esa xonani ichidagi ma'lumotlar joylanishi (gorizontal va vertikal joylanishi), bir nechta sartga bulish holati, ma'lumotlarni avtosingdirish holati, xonalarni birlashtirish holatini yoqib o'chirishimiz mumkin, va xonaning ichidagi ma'lumotlar yozilish yo'nalishini o'zgartirishimiz mumkin.

SHRIFT qismi yordamida esa harflar shakli, kattaligi, rangi, chiziqlar turini va boshqa har xil effektlardan foydalanishimiz mumkin. GRANITSA qismi yordamida tanlangan xonalarning chegaralar turini va rangini o'zgartirishimiz mumkin.

VID qismi yordamida esa tanlangan xonalar orqa rangini o'zgartirishimiz mumkin.

ZASHITA qismi bizga tanlangan xonarni parol bilan ximoyalanishi va ichidagi formulalarni ko'rinmasligini ta'minlaydi.



Jadvallarda har xil funktsiya va formulalarni ishlatish mumkin. Ularni yozishdan avval =belgisini qo'yishingiz kerak. Funktsiyalarda +(qo'shish), -(ayirish), \* (ko'paytirish), / (bo'lish), ^ (darajaga ko'tarish) belgilarini ishlatishingiz mumkin. Formulalarda xonalar nomi faqat lotin harflar bilan berilishi shart. Masalan agar A1 va V12 xonalardagi sonlarni bir biriga qo'shish kerak bo'lsa u holda formulamiz quyidagicha bo'ladi: =A1+V12

## Asosiy funktsiyalar:

MIN xonalardagi sonlarni minimalini topish.

MAKS xonalardagi sonlarni maksimalini topish

SR ZNACH xonalardagi sonlarni o'rtachasini topish

SUMM xonalardagi sonlarni yig'indisini topish

ESLI (shart, to'g'ri, noto'g'ri) shart bo'yicha amalni bajarish

SCHYoT Z bo'sh bo'lmagan xonalar sonini aniqlash

SCHYoT ESLI (xonalar, shart) shartga javob beruvchi xonalar sonini aniqlash

SEGODNYa( )bugo'ngi kunni qo'yish

STEPEN(son, daraja) ko'rsatilgan sonni kerakli darajaga ko'tarish

ZNAK(xona) ko'rsatilgan xona ichidagi ma'lumotlar ishorasini aniqlash

COS(son) ko'rsatilgan sonni kosinusini aniqlash

SIN(son) ko'rsatilgan sonni sinusini aniqlash

Formulalarda bir nechta xonalar ko'rsatilganda ular o'rtasidagi : belgi "dan gacha" ma'nosini bildiradi. Shu bilan birga; belgisi esa "bilan" ma'nosini bildiradi.

Masalan: =SUMM(A1:F11) bu A1 dan F11 gacha to'rtburchak sohadagi ma'lumotlar summasini topish ma'nosini bildiradi. =SUMM(A11;C15) bu A11 va C15 xonalardagi sonlar summasini topish ma'nosini bildiradi. Xonalarni sichqoncha yordamida ko'rganimizda SHIFT tugma bilan tanlanganlar "dan gacha", CTRL bilan esa "va" ma'nosini bildiradi. Formulalarda qo'shtirnoq « » ichida yozilgan mantlar o'zgartirilmasdan ekranda chiqariladi.


Misol uchun: =ESLI(A1=5, "A'lo", "A'lo emas") bu agar A1 xonadagi son 5 ga teng bo'lsa u holda formula xonasida "a'lo" so'zi yoziladi, aks holda esa "a'lo emas" so'zi yozilish ma'nosini bildiradi. Formula bor xonani avtoro'yhat bilan to'ldirganimizda ichidagi formula o'zgarish satri yoki ustunga qarab o'zgaradi.

Misol uchun: Agar =ESLI(A1=5, "A'lo", "A'lo emas") formulasi bor

xonani pastka avtoro'yhat yo'li bilan to'ldirsak, u holda pastki xonada bu formula =ESLI(A2+5, "A'lo", "A'lo emas") ga o'zgaradi. Agar uni o'ng tomonga to'ldirsak u holda o'ng tomondagi xona formulasi =ESLI(B1=5,"A'lo","A'lo emas") ga o'zgaradi.

Agar avtoto'ldirish yoki nusxa olish natijasida xosil bo'lgan formulada biror bir xona nomi o'zgarmas bo'lishi kerak bo'lsa, u holda uning nomi oldida \$ belgisini qo'yishingiz kerak bo'ladi.

Masalan: =ESLI(\$A\$2q5,"A'lo","A'lo emas") formulada A2 xona nomi o'zgarmas. Agar \$A\$2 o'rniga \$A2 u holda faqat satr nomeri o'zgaruvchan, agar esa \$A\$2 o'rniga A\$2 bo'lsa u holda faqat ustun nomi o'zgaruvchan bo'ladi.

